

YOSHLAR TADBIRKORLIGI SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING INDIKATORLAR TIZIMI VA ANDIJON VILOYATI MISOLIDA KPI ASOSIDA TAHLIL

Rahmatullayeva Feruza

Qo'qon universiteti andijon filiali “Iqtisodiyot va moliya” kafedrası v.v.b. dotsenti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.20755986>

Annotatsiya. Ushbu tezisdá yoshlar tadbirkorligi samaradorligini baholash uchun ishlab chiqilgan kompleks indikatorlar tizimi hamda KPI (Key Performance Indicators) asosidagi monitoring mexanizmi yoritilgan. Tadqiqotda iqtisodiy, bandlik, ijtimoiy, innovatsion va institutsional mezonlar asosida integral samaradorlik indeksi (ISI) shakllantirilgan. Shuningdek, Min–Max normallashtirish usuli va KPIlarni yagona indeksga birlashtirish algoritmi taklif etilgan. Andijon viloyati misolida yoshlar tadbirkorligi dinamikasi va kichik biznes ulushidagi o'zgarishlar tahlil qilingan. Tadqiqot natijalari yoshlar tadbirkorligini natijaga yo'naltirilgan boshqaruv tizimi asosida baholash va siyosiy qarorlarni optimallashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: yoshlar tadbirkorligi, KPI, integral indeks, ISI, bandlik, innovatsiya, normallashtirish, Andijon viloyati.

Kirish

Yoshlar tadbirkorligi zamonaviy iqtisodiyotning muhim drayverlaridan biri bo'lib, u bandlikni oshirish, daromadlarni ko'paytirish va innovatsion rivojlanishni ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi. Shu sababli, uning samaradorligini baholash uchun kompleks indikatorlar tizimini ishlab chiqish dolzarb masala hisoblanadi. Ushbu tadqiqotda yoshlar tadbirkorligini iqtisodiy, ijtimoiy va institutsional jihatdan baholashga imkon beruvchi ko'p o'lchovli indikatorlar tizimi ishlab chiqildi.

Asosiy qism

Yoshlar tadbirkorligi samaradorligini baholashda quyidagi mezonlar qo'llanildi: iqtisodiy (rentabellik, o'rtacha daromad), bandlik (yangi ish o'rirlari, o'zini band qilgan yoshlar), ijtimoiy (rasmilashuv darajasi), innovatsion (raqamli biznes ulushi) va institutsional (davlat qo'llab-quvvatlashi qamrovi). Ushbu indikatorlar asosida integrallashgan samaradorlik indeksi (ISI) shakllantirildi.

Indikatorlarning turli o'lchov birliklarida ifodalanishi sababli Min–Max normallashtirish usuli qo'llanildi. Bu yondashuv indikatorlarni 0–1 oralig'iga keltirib, ularni yagona tizimda taqqoslash imkonini beradi. Normallashtirilgan indikatorlar asosida ISI quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$ISI = \sum \omega_j Zijt$$

bu yerda ω_j – indikator vaznlari, Zijt – normallashtirilgan qiymatlar.

Tadqiqotda KPI asosida monitoring tizimi ham ishlab chiqildi. KPilar bandlik, daromad, samaradorlik, rasmilashuv va innovatsiya yo'nalishlarida belgilangan maqsadlar bilan solishtirilib baholanadi. Yillik ISI KPI asosida avtomatik hisoblanadi va “svetofor” (traffic-light) tizimi orqali quyidagicha tasniflanadi: yashil (≥ 0.70), sariq ($0.50-0.70$) va qizil (< 0.50).

KPI asosidagi monitoring modeli

Yoshlar tadbirkorligini baholash uchun KPI tizimi joriy etiladi. KPilar natijaga yo'naltirilgan boshqaruv (result-based management) tamoyiliga asoslanadi.

1-jadval.

Andijon viloyati uchun KPI tizimi

Yo'nalish	KPI nomi	Hisoblash	Maqsad (3 yil)
Bandlik	Yangi ish o'rinlari	kishi soni	+25–30%
Daromad	O'rtacha daromad	real o'sish	+20%
Samaradorlik	ISI indeksi	integral ko'rsatkich	≥0.75
Rasmiylashuv	Rasmiy biznes ulushi	%	≥70%
Innovatsiya	Raqamli biznes ulushi	%	≥15%

KPIlar asosida ISI^KPI indeksi hisoblanadi:

$$ISI^{KPI}(t) = \frac{Z_1(t) + Z_2(t) + Z_3(t) + Z_4(t)}{4}$$

Natijalar “svetofor modeli” asosida baholanadi:

- **Yashil:** ≥0.70
- **Sariq:** 0.50–0.70
- **Qizil:** <0.50

Andijon viloyati bo'yicha tahlillar shuni ko'rsatadiki, 2018–2022 yillarda kichik biznes sub'ektlari barqaror o'sish ko'rsatgan, biroq 2023 yilda pasayish kuzatilgan. Shu bilan birga, yoshlar tadbirkorligining ulushi 2023 yilda 3.1% ga yetgan bo'lsa-da, bu o'sish umumiy biznes faolligining qisqarishi fonida yuzaga kelgan.

Demografik tahlillar 2017–2024 yillarda yoshlar sonining kamayish tendensiyasini ko'rsatmoqda. Bu holat kelgusida tadbirkorlik salohiyatining qisqarish xavfini keltirib chiqaradi.

Xulosa

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, yoshlar tadbirkorligi samaradorligini baholashda ko'p o'lchovli indikatorlar tizimi va KPI asosidagi monitoring modeli muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Taklif etilgan ISI indeksi va normallashtirish algoritmi turli indikatorlarni yagona tizimga birlashtirish imkonini beradi. Andijon viloyati misolida o'tkazilgan tahlillar yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda institutsional qo'llab-quvvatlash va barqaror iqtisodiy muhit muhim rol o'ynashini ko'rsatdi. Ushbu yondashuv natijaga yo'naltirilgan boshqaruv tizimini shakllantirish va siyosiy qarorlarni optimallashtirish uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Todaro M. P., Smith S. C. Economic Development. 13th ed. — New York: Pearson, 2015. — 768 p.
2. OECD. Entrepreneurship at a Glance 2023. — Paris: OECD Publishing, 2023. — 210 p.
3. World Bank. World Development Indicators 2024. — Washington, DC: World Bank, 2024. — 350 p.
4. Schumpeter J. A. The Theory of Economic Development. — Cambridge: Harvard University Press, 1934. — 255 p.
5. Porter M. E. Competitive Advantage of Nations. — New York: Free Press, 1990. — 855 p.

6. United Nations Development Programme (UNDP). Youth Employment and Entrepreneurship Report. — New York: UNDP, 2022. — 180 p.
7. Davlat statistika qo‘mitasi. O‘zbekiston Respublikasi demografik va iqtisodiy ko‘rsatkichlar to‘plami (2017–2024). — Toshkent, 2024. — 120 b.